

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

KADIROVA BARNO TURANBOY QIZI

**QIYNOQQA QARSHI KURASHISHGA OID QONUNCHILIK IJROSI
USTIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

12.00.07 - Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish.
Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Kadirova Barno Turanboy qizi

Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalari.....3

Kadirova Barno Turanboy kizi

Issues of improving the prosecutor’s supervision over the implementation of legislation on combating torture.....22

Kadirova Barno Turanboy kizi

Вопросы совершенствования прокурорского надзора за исполнением законодательства о борьбе с пытками.....40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works.....

Список опубликованных работ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

KADIROVA BARNO TURANBOY QIZI

**QIYNOQQA QARSHI KURASHISHGA OID QONUNCHILIK IJROSI
USTIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

12.00.07 - Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish.
Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Yu488 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Xurshid Akramovich

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axrorov Baxrom Jabbarovich

yuridik fanlar doktori, professor

Sultonov Oybek Sultonboyevich

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 15-dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 42. Tel.: (99871) 202-04-96; faks: (99871) 233-35-81; e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (32-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 42. e-mail: info@proacademy.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 28-noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 20-noyabrdagi 12-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Mamasiddiqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

SH.I. Shayzakov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.A. Aminjonova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va qiynoqqa solishning oldini olish dolzarb bo'lib hisoblanadi. 1948-yil 10-dekabrda xalqaro hamjamiyat "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"¹ni qabul qilish orqali fuqarolarga qiynoq va shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala va jazo turlarini qo'llashni taqiqladi. Deklaratsiyaning 5-moddasida "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak"ligi mustahkamlangan. Bundan tashqari, "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi" Konvensiyaning² qabul qilinishi xalqaro darajada qiynoqlarni oldini olish va ushbu sohadagi qonunchilik ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatish dolzarb ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Jahonda qiynoqqa solishning oldini olish samaradorligini oshirish, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishning mexanizmini takomillashtirish; qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararining kompensatsiya qilinishini ta'minlash; qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash hamda faoliyat natijalari to'g'risidagi axborotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jinoyatlarni fosh qilish hamda inson huquqlari sohasidagi bilim va malakalarini oshirish, jinoyatlar profilaktikasining amalda to'g'ri ishlashini ta'minlash hamda qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash samaradorligiga oid prokuror vakolati va mazkur sohadagi nazorat faoliyati bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"³gi PF-60-son Farmonida "qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda «**Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar**» tamoyilini bosh mezonga aylantirish, shuningdek, tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini samarali himoya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish" huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish global vazifalardan biri sifatida belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra⁴, 2022-yilda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan qiynoq va boshqa tazyiqlar o'tkazilganligi haqida 268 ta (2021-yilda 309 ta, 2020-yilda 276 ta) ariza va xabarlar kelib tushgan. Asosiy murojaatlarning 2022 yilda 67 (2021 yil 30) tasi Surxondaryo, 64 (2021 yil 46) tasi Toshkent, 52 (2021 yil 93) tasi Samarqand, 30 (2021

¹ Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi // Elektron manba: <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

² 10.12.1984 y. BMT va Qiynoqlarga qarshi qo'mita hujjatlari – "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi" Konvensiya, "Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi" Konvensiya, Qiynoqlarga qarshi BMT qo'mitasining umumiy tartibdagi mulohazalari hujjatlar to'plami. Toshkent-2014-y. -B.14-15.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 5-33827/22 son javob xati

yil 30) tasi Namangan, 23 (2021 yil 34) tasi Buxoro, 7 (2021 yil 4) tasi Toshkent shahri va 25 (2021 yil 72) tasi boshqa hududlarga to‘g‘ri keladi. Shundan, mazkur ariza va xabarlar yuzasidan o‘tkazilgan tekshiruv natijalariga ko‘ra, 4 (2021 yil 20) ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, 249 (2021 yil 276) ta jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilgan, 1 (2021 yil 8) ta boshqa organga yuborilgan va 14 (2021 yil 11) ta holat bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish uchun tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazilgan. Qayd etish lozimki, qiynoq bilan bog‘liq murojaatlar soni, ular natijasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari tahlili bu borada prokuror nazoratini yanada takomillashtirish, ushbu yo‘nalishdagi nazorat faoliyatini kuchaytirishda yangi uslublarni joriy etishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi (2001) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2017-yil 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5268-son, 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6041-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5163-son va 2023-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-46-son Qarorlarida hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha shu kunga qadar O‘zbekiston Respublikasida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. O‘zbekistonda B.X. Po‘latov, O.M. Madaliyev, F.X. Raximov, V.Karimov, M.X. Rustambayev, Z.S. Ibragimov, G.R. Malikova, O. Toshev, D.S. Dovudova, D.SH. Umarxanova, I.T. Turgunov, SH.I. Zokirov, D. Xamdamova, A.B. G‘afurov, D.M. Mirazov, A.R. Davronov, R.Abdurasulova, M. Maxbubov, SH.J. Raximov, I.B. Djurayev, D. Bazarova, B.B. Adilov va A. Shodiyevlarning tadqiqot ishlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratining huquqiy asoslari hamda jamiyatda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlashda prokuratura organlarining rolini oshirishga doir masalalar muayyan darajada yoritilgan⁵. A.X. Saidov, A.B. Komilov, F. Eshmatova, D.M. Mirazov, I.B. Djurayev, SH.J. Raximov, SH.I. Zokirov, SH.M. Saidovlar o‘z ilmiy izlanishlarida tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish, prokuratura organlarida murojaatlar

⁵ Mazkur va boshqa olimlar asarlarning to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

bilan ishlash institutini takomillashtirishda prokuratura organlari rolini oshirish, dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan nazorat faoliyatini takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, A.B. G'afurov, M.T. Turgunov va Z.S. Ibragimovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson huquqlariga amal qilish, inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar hamda davlat hokimiyati tizimida prokuratura organlarining rolini muhimligi keng yoritib berilgan. X.A. Karimov tomonidan "Qiynoqqa solishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari" mavzusida dissertatsiya tadqiqoti amalga oshirilgan. Biroq, yurtimizda qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergovda va shaxsning erkinligi cheklanishi mumkin bo'lgan joylarda prokuror nazoratini samarali tashkil etishga doir tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Jumladan, xorijiy mamlakatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, dastlabki tergovni olib borishda qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining ayrim jihatlari e'tibor qaratilgan. Xususan, Lutz Oette, Tobias Kelly, Yu.E. Vinokurova, A.A. Popov, A.N. Axpanov, D.U. Kaimova, R.S. Chobanyan, O.P. Kopilova, A.P. Golub, V.R. Mannanov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁶.

Tabiiyki, keltirib o'tilgan va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati borasidagi tushunchalarining yanada kengayishi va chuqurlashishiga sabab bo'ldi. Biroq, mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan qiynoqqa qarshi kurashishga doir qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar alohida kompleks tarzda o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining 2021-2023-yil tadqiqot rejasiga kiritilgan va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati bilan bog'liq muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish, prokuror nazorati samaradorligini oshirish hamda mavzu bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining mohiyati, predmeti, maqsad va vazifalarini ochib berish;
- qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining tarixi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;
- qiynoqqa qarshi kurashishga oid xalqaro va milliy qonunchilik asoslarini tahlil qilish;
- qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlash;
- qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda hamkorlik masalalari o'rganish;

⁶ Mazkur va boshqa olimlar asarlarning to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

- xorijiy davlatlar prokuratura organlarida qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat faoliyatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;
- qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti – qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ huquqiy-hujjatlar, bu sohaga tegishli prokuror nazoratining amaliyot hujjatlari, sud amaliyoti materiallari, xalqaro-huquqiy hujjatlar, olimlarning mazkur soha doirasida amalga oshirgan tadqiqot ishlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, sotsiologik, mantiqiylik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma’lumotlar tahlili, induksiya, deduksiya kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi bilan bir qatorda, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi ham ishda qatnashayotgan shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shartligi haqidagi taklif jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarining himoyasini kuchaytirishga, tergovga qadar tekshiruv organlarining bu boradagi majburiyatlarini prinsip darajasiga ko‘tarish asoslantirilgan;

tergovga qadar tekshiruv organlari tomonidan jinoyat sodir etilgani to‘g‘risidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish hamda hal qilishning tartibi, prokuror nazorati asosida tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni olib borishning qonunchilikda belgilangan tartibini prokuror nazoratning predmeti sifatida qonunchilikda mustahkamlanishi asoslantirilgan;

qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplash tartibini qonunchilikda mustahkamlanishi zarurati asoslangan;

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida, shuningdek, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarning huquq va majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish prokuror nazoratining predmeti sifatida belgilanishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

tadqiqot natijalari, prokuratura organlari faoliyati hamda prokuror nazorati bo‘yicha olimlarning fikr-mulohazalari tahlil qilinib, prokuror nazorati tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan;

tergov hibsxonalari, vaqtincha saqlash hibsxonalari va videokuzatuv moslamalari viloyat va ularga tenglashtirishgan ichki ishlar organlarining boshqarmasiga ulanganidek, maxsus qabulxonalari hamda ichki ishlar binolarning kirish joylarida videokuzatuv kameralari bilan ta’minlash hamda ushbu videokuzatuv moslamalarini viloyat va ularga tenglashtirilgan ichki ishlar organlarining boshqarmalariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqligi hamda videokuzatuv xotirasini kamida 6 oy muddat saqlanishi lozimligi asoslantirilgan;

gumon qilinuvchi tariqasida ushlangan shaxslarni videoyozuv moslamalarisiz xonalarga olib kirib so‘roq qilishni qat’iyan man etilishi taklifi bildirilgan;

qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalada bo'lish kabi jinoyatlarning oldini olish maqsadida fosh etilmagan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun gumon qilinuvchi tariqasida ushlangan shaxslarni 24 soat ichida tuman, shahar prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan ushlab bilan bog'liq bo'lgan harakatlarda qonunlarga rioya etilishi holatlarini tekshirish uchun shaxsan suhbat o'tkazishi, shuningdek, fosh etilmagan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlari ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishlarini o'rganib ayblov xulosasini tasdiqlashdan oldin tuman, shahar prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan shaxsan ayblanuvchi bilan suhbat o'tkazilishi amaliyotini joriy etish taklif bildirilgan;

tergov o'tkazish xonalari joylashgan qavatlarida, shuningdek, xavfsizlik nuqtai nazaridan ko'p qavatli huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning yuqori qavatlariga xavfsizlik panjaralarini o'rnatish lozimligi asoslantirilgan;

Huquqni muhofaza qilish akademiyasida "Qiynoqqa qarshi kurashish bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar hamda javobgarlik" "Qiynoq bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish" va "Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati" kabi mavzularida majburiy o'quv kurslarini tashkil etish prokuratura organi xodimlari va bo'lajak huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy qadr qimmatni kamsituvchi muomala va boshqa jazo turlarining oldini olishda malakali kadrlarni yetishtirishga xizmat qilishi asoslantirilgan;

qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va boshqa jazolarning oldini olish yuzasidan fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklangan joylarda prokuror nazoratini kuchaytirish maqsadida Ichki ishlar binolari, tergov hibsxonalari, vaqtincha saqlash hibsxonalari hamda jazoni ijro etish muassasalarida prokuror ishonch telefonlarini tashkil etish asoslab berilgan hamda har bir murojaat audio tarzida yuklab olishni tartibga solish taklifi bildirilgan;

qiynoq holatlari yuz berganda ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikni jinoyat ishi bo'yicha xabardor qilinishi, jinoyat ishi bo'yicha ochiqlikni ta'minlanishi qiynoqlarning oldini olish va qiynoqlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etishi ilgari surilgan;

qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash jinoyatlari haqidagi ariza va xabarlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarining tergov tarmoqlari tomonidan amalga oshirish taklifi ilgari surilgan;

qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash jinoyati alomatlari yaqqol ko'rinib turganda zudlik bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarining tergov tarmoqlari tomonidan dastlabki tergov harakatlari o'tkazilishi taklifi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotining har bir bobi yakunida keltirilgan xulosalar, shuningdek dissertatsiya ishining xulosasida o'z aksini topgan umumnazariy to'xtamlar (qoidalar), qonun hujjatlarini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar prokuror nazorati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tashkil etish hamda advokatura fanida mavjud bo'lgan nazariy qarashlarga, ushbu sohadagi xalqaro hujjatlar, xorijiy

mamlakatlar qonunchiligi, milliy qonunchilik normalariga, shuningdek huquqni qo‘llash amaliyotiga, shu bilan birga, ijtimoiy so‘rov natijalariga asoslanganligi (1245 nafar tuman (shahar) va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning fikrini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi) tadqiqot ishida axborot bazasining ishonchligi rasmiy nashrlarda e‘lon qilingan statistik ma‘lumotlardan, shuningdek monografik tadqiqotlarda tekshirilgan va nashr etilgan adabiyotlardan foydalanilganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tomonidan qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan 2020-yilda o‘tkazilgan 276 ta, 2021-yilda o‘tkazilgan 309 ta, 2022-yilda o‘tkazilgan 268 ta tekshirish va tahlil materiallari, ularning natijasiga ko‘ra qo‘llanilgan prokuror nazorati hujjatlari hamda sud amaliyoti materiallarini o‘rganish natijalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflardan qiynoqqa solish va qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish, ushbu sohaga taalluqli nazariy bilimlarni boyitish hamda yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy xulosalar, takliflar va tavsiyalardan prokuror nazoratini tashkil qilishda, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchilari, prokuratura organlarining xodimlari, tergovchi, tergovga qadar tekshiruv hamda jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun ilmiy va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda hamda o‘quv jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va boshqa jazolarning oldini olish to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Jinoyat-protsessual kodeksining loyihasi 7-moddasida (shaxsning daxlsizligi), shuningdek, “Shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish” deb nomlangan 8-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 29-martdagi 27/2-53-22-son dalolatnomasi). Mazkur taklif shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan inson qadr - qimmatini hurmat qilishni ta‘minlashga xizmat qilgan.

Tergovga qadar tekshiruv organlari tomonidan jinoyat sodir etilgani to‘g‘risidagi ariza va xabarlarini ko‘rib chiqish hamda hal qilishning tartibi, chiqarilgan qarorlarning qonuniyligini ta‘minlash prokuror nazoratining predmeti ekanligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Jinoyat-protsessual kodeksining loyihasi 33-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 29-martdagi 27/2-53-22-son dalolatnomasi). Mazkur taklif tergovga qadar tekshiruv organlarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishning huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2022-yil 29-martdagi O‘RQ-761-son Qonuni 1-moddasiga “Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz,

g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash bilan bog'liq jinoyatning jabrlanuvchilariga yetkazilgan zararni qoplash" doirasida ishlab chiqilgan takliflari amaldagi Fuqarolik kodeksining 991-moddasining birinchi qismi hamda 1021-moddasi uchinchi xatboshisiga kiritilishida foydalanilgan (Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2022-yil 27-dekabrda 01/1346-son dalolatnomasi). Mazkur taklif qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilikning ta'minlanishi hamda jabrlanuvchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi 8-bobi nomlanishiga "ma'muriy qamoq" va mazkur loyihaning 59-moddasiga "ma'muriy qamoq" so'zlarini kiritilishida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2023-yil 4-maydagi 27/2-129-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosini ta'minlash, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar, mahkumlarning, hamda jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta (shundan 4 ta xorijiy jurnallarda) va konferensiya to'plamlarida 7 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan hamda texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, natijalarning aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishiga oid ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining nazariy-huquqiy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf "*Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati mohiyati va predmeti*"ga bag'ishlangan bo'lib, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik normalari, prokuror nazoratining

tushunchasi va mohiyati, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining tushunchalari keltirilgan. Mazkur paragrafda dissertant prokuror nazorati tushunchasiga oid olimlar (B.H. Po‘latov, M.X. Rustambayev, Z.S. Ibragimov, F.X. Raximov, A.R. Davronov, A.B. Komilov, G.S. Berezovskaya, Yu.Y. Vinokurov va B.V. Korobeynikovlar) tomonidan keltirilgan ta’riflarni muhokama qilib, bu borada o‘zining mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan. Bundan tashqari, prokuror nazoratini amalga oshirishda shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlash, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati predmeti tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan organ xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatining huquqiy tartibi, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi bilan bog‘liq protsessual faoliyati hamda davlat organlarining qiynoqlarga qarshi kurashishga oid qonunchilikka rioya etishlariga oid faoliyat hisoblanishi ochib berilgan.

Ushbu bobning *“Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining rivojlanish bosqichlari”*, deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekiston hududida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashning oldini olish va prokuror nazoratining rivojlanish tarixi, yuridik adabiyotlar, huquqshunos olimlarning (O.M. Madaliyev, B.X. Po‘latov, G.R. Malikova, M. Maxbubov, Z.S. Ibragimov, D.S. Dovudova, A.X. Saidov, SH.I. Zokirov, J.M. Shodiyev, SH.M. Saidov, T. Reshetnikov) keltirilgan fikrlari, qonunchilik normalari bilan o‘rganilib, 1917-1922 yillarda jinoyat tergov qilishning qonuniyligi, qamoqda saqlash joylari va u yoki bu shaklda nazorat qilish davlat hokimiyati va boshqaruvning turli organlari tomonidan amalga oshirganligi, sovetlar va ularning organlari o‘sha davrda amalga oshirgan qonun ustuvorligini ta’minlash tizimi o‘zini oqlamaganligi, 1922-1924 yillarda “Davlat prokuraturasi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlanganligi, 1924-1990 yillarda O‘zbekiston SSRda Adliya xalq komissarining o‘rinbosari bir vaqtning o‘zida respublika prokurori ham hisoblanganligi, 1936-yilga kelib, O‘zbekiston SSR prokuraturasi tuzilganligi tadqiq etilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng alohida prokuratura tizimiga asos solinganligi, yuqorida nomlari sanab, o‘tilgan olimlar fikrlari hamda qonunchilik asoslariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida prokuror nazoratining birinchi bosqichi sifatida 1992-yil 9-dekabrda “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi, ikkinchi bosqichi sifatida 2001-yil 29-avgustda “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunini yangi tahrirda qabul qilinishi prokuror nazoratini ta’minlashdan iborat bo‘lganligi masalalari yoritib berilgan.

Bundan tashqari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shaxsiy daxlsizligini hamda qiynoqqa solish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish hamda qonunchilik ijrosi ustidan nazorat olib borish muhtasiblar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, muhtasib institutining rivojlanish tarixi olimlarimizning fikr mulohazalari bilan isbotlangan. Asrlar davomida bu an‘ana muayyan o‘zgarishlarga yuz tutganiga qaramay, umuman olganda nazorat funksiyasi tubdan tizimli o‘zgarishga uchramagan. Muhtasib lavozimi davlat

boshqaruvida muhim lavozimlardan biri bo'lganligi hamda shariat normalariga muvofiq ish ko'rganligi bilan boshqa lavozimlardan ajralib turganligi tahlil qilingan.

BMTning 1984-yil 10-dekabrda "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi" Konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda Oliy Majlis qaroriga asosan qo'shilganligi 2003-yilda Jinoyat kodeksida 235-moddasi yangi tahrirda⁷ qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llaganlik uchun javobgarlik belgilanganligi ushbu sohada prokuror nazorati predmeti sifatida yanada mustahkamlanganligi sifatida qayd etilgan.

"Qiynoqqa qarshi kurashishga oid xalqaro va milliy qonunchilik asoslari" deb nomlangan uchinchi paragrafda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi keltirilgan bo'lib, unda "Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lgan qiynoqlarning har qanday ko'rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'ymaymiz. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat'iy nazar, ular uchun jazo muqarrar"ligini ta'kidlanganligi, Prezidentimizning ushbu fikrlari mazkur yo'nalishdagi qonunchilikni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi keltirib o'tilgan.

Bundan tashqari, xalqaro huquqiy-hujjatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xalqaro miqyosda qabul qilingan qiynoqqa solish va boshqa g'ayriinsoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va qiynoq bilan bog'liq jinoyatlardan himoyalashga oid hujjatlar insonning ruhiy va jismoniy daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan eng muhim hujjatlar sifatida qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Pakt, 1975-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Hamma shaxslarni qiynoqlardan boshqa qattiq shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlaridan muhofaza qilish to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, xalqaro miqyosdagi BMTning eng muhim hujjatlaridan biri 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi" Konvensiya, 2002-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 57/199-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiyaga Fakultativ protokoli", 1950-yil 4-noyabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi", 1948-yildagi "Inson huquqlari va majburiyatlari Amerika Deklaratsiya"si, 1969-yil 22-noyabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha Amerika Konvensiyasi", 1985-yil 9-dekabrda "Qiynoqlarning oldini olish va jazolash bo'yicha Amerika konvensiya" va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar o'rganilib, davlatlar oldida ushbu hujjatlar ijrosini ta'minlash majburiyati mavjudligi, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini, shu jumladan, prokuratura organlari xodimlari uchun qiynoqlarni oldini olishga oid xalqaro

⁷ O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni
<https://lex.uz/uz/docs/36558?ONDATE=11.11.2003%2000#37236>

standartlar talablari doirasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati samaradorligini oshirishda yuqoridagi xalqaro umume'tirof etilgan hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etishi keltirilgan.

Tadqiqot ishida milliy va xalqaro-huquqiy hujjatlarda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish va qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish, shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoyasini ta'minlashga xizmat qilishi muhokama qilingan.

Dissertant tomonidan milliy qonunchilik normalarida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va boshqa jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha talablar belgilangan bo'lsa, ularning ijrosini nazorat qilishning protsessual tartibi, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat qilish, prokuratura organlari o'z faoliyati va vazifalarini bajarish vaqtida faqat qonunlar emas, qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni olib bormog'i lozimligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish masalalari**" deb nomlanib, uch paragrafni o'z ichiga oladi. Birinchi paragraf "*Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsad va vazifalari*" deb nomlangan bo'lib, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining holati va huquqiy asoslari yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishlari, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatini amalga oshirish va qonunlar ijrosi ustidan nazoratini olib borish kabi asosiy vazifalar belgilanganligi qayd etilgan.

Olimlar (N.V. Grigoreva, D.A. Lobachev, A.B. Komilov, D.SH. Ibragimov, D.Y. Xabibulllaev, B.X. Po'latov, O.M. Madaliyev, Yu.Ye. Vinokurov, O.P. Kopilova, S.L. Alekseyev, N.R. Votchel, A. Shodiyev) tomonidan ilgari surilgan fikrlarga tayangan holda prokuror nazorati vazifalarini uch toifaga ajratilib, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati maxsus vazifalaridan biri ekanligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shaxsning har qanday erkinligi cheklangan joylarda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va boshqa jazo turlarning qo'llanishining oldini olish hamda qonunlarning ijrosini ta'minlash hisoblanishi asoslab berilgan.

Muallif qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi mazkur sohada qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uni oldini olishdan iboratligi to'g'risida xulosaga kelgan.

Muayyan hududda sodir etilgan qiynoqqa solish bilan bog'liq arizalarni ko'rishda o'sha hudud tergovchisining xolisligini ta'minlash hamda ortiqcha ta'sirlardan himoya

qilish va yetarlicha malakaga ega bo'lgan xodimlar tomonidan tergovga qadar tekshiruvni olib borish maqsadida, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarining tergov tarmoqlari tomonidan bunday arizalarni ko'rib chiqib, tergovga qadar tekshiruvni o'tkazish muhimligi tahlil qilingan.

O'z navbatida, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash jinoyati alomatlari yaqqol ko'rinib turganda zudlik bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuratura tergov tarmoqlari tomonidan dastlabki tergov harakatlari o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Ikkinchi paragrafi "*Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari*" deb nomlanib, qiynoqqa solishning oldini olish va qonunchilik ijrosini taminlashda bir qancha davlat organlari faoliyatining asosiy qismini talab etsa, qonunchilik ijrosini va shaxs huquq va erkinliklari kafolatlariga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan prokuror nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Prokuror nazoratini tashkil etishda har bir sohada nazoratni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani kabi, qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishi ham o'zigaxos xususiyatlarga egaligi tahlil qilingan, ya'ni:

birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi idoralarning qonunchilikni ijro etishlari ustidan nazorat qilish va ularning ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

ikkinchidan, mazkur nazorat turi maxsus subyektlarning ya'ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov hamda tezkor qidiruv organlari xodimlarining shaxsning huquq va erkinliklariga rioya etishlari hamda jazoni ijro etish muassasalarida, tergov va vaqtincha saqlash hibsonalarida, maxsus qabulxonalarda qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, tadqiqot ishida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llanilishining oldini olish hamda ushbu jinoyatning yana bir subyekti sifatida tergovga qadar tekshiruv organlari ham shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shartligi belgilanishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shaxsiy daxlsizligi, qolaversa, jinoyat ishi yuzasidan jalb qilingan protsessual ishtirokchilar manfaatlarini ta'minlash ularni himoya qilishda asosiysi, qiynoqqa qarshi kurashish va qiynoqlarni oldini olishda prokuror nazoratining bugungi holati yoritilgan.

"*Qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda hamkorlik masalalari*" deb nomlangan uchinchi paragrafda qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda hamkorlik masalalari alohida ahamiyat kasb etishi keltirilgan.

Prokuratura organlarining qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) bilan hamkorligi alohida qayd etilgan. Shuningdek, qiynoqqa qarshi kurash masalalari, bu borada aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish borasida ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikni

xabardor qilish, jinoyat ishi bo'yicha olib borilayotgan tergov harakatlarini haqida ma'lumotlarni yoritib borish, ushbu jinoyatlar bo'yicha ochiqlikni ta'minlashi, qiynoqlarning oldini olish va qarshi kurashishda hamda qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati va jamoatchilik nazoratini mustahkamlaydi. Fuqarolar tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga bo'lgan munosabat va ishonch ortirishiga olib kelishi tahlil qilingan.

Muallif tomonidan qiynoqqa qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosini ta'minlash maqsadida, tergov hibsonalari, vaqtincha saqlash hibsonalarini videokuzatuv moslamalari viloyat va ularga tenglashtirishgan ichki ishlar organlarining boshqarmasiga ulanganidek, maxsus qabulxonalarini hamda ichki ishlar binolarining kirish joylarini videokuzatuv kameralari bilan ta'minlash hamda ushbu videokuzatuv moslamalarini viloyat va ularga tenglashtirilgan ichki ishlar organlarining boshqarmalariga integratsiya qilish, shuningdek, videoyozuvlarning saqlanish muddatini kamida 6 oy qilib belgilanishi fuqarolarning huquq va erkinliklarining qisman ta'minlanishi, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy, qadr-qimmatni kamsituvchi va boshqa jazolarning qo'llanishi hamda dalillarning yo'q qilinishini oldini olishga yordam berishi asoslantirilgan.

